IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY ILDIZLARI

Mamatov Ozodbek Komilovich
Qarshi shahar Aral maxalla
MFY Yoshlar yetakchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24021587

Annotatsiya

Milliy qadriyatlarning tarixiy ildizlari — bu xalqning o‘tmishidagi voqealar, madaniy merosi, diniy qarashlari va ijtimoiy tajribasi asosidir. Ya’ni, milliy qadriyatlar (masalan, til, o‘zbek xalqi qadriyatlari, axloqiy tamoyillar, me’yorlar) shakllanishi va rivojlanishi davomida o‘z ildizlarini topadi, ularni zamonaviy sharoitda qanday qilib saqlab, rivojlantirilishini tushunishga erishadi.

Kalit so’zlar: Milliylik, qadriyat, tarixiy ildiz, axloq, ma’naviy meros.

Xalqning tarixiy tajribasi. Milliy qadriyatlar o‘z ildizlarini xalqning turli davrda yuz bergan ijtimoiy-madaniy jarayonlaridan kelib chiqadi. Har bir bosqichda xalq o‘zining yangi tajribasini va qadriyatlarni saqlab qolishga harakat qiladi.

- Ma’naviy meros. Diniy qarashlar, ma’naviy yodgorlik, ma’rifatparvarlik (tarixiy ma’naviy manbalar kabi) xalq qadriyatlarining asosiy ildizlarini belgilaydi. Misol uchun, o‘zbek xalqi tarixida Avesto kabi qadimiy manbalar orqali o‘z milliy ma’naviy qadriyatlarining qo‘shildiği ko‘riladi.
- Madaniy o‘zlik. Xalqning madaniy merosi (usul-uslub, tabiat bilan aloqa, urf-odatlar, halk quyini, san’at) ham milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.
- Ijtimoiy taraqqiyot. Milliy qadriyatlar shakllanishi va rivojlanishi uchun xalqning ijtimoiy hayotda muhim o‘rin egallaydigan omillaridan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar o‘z ildizlarini yoqotmasdan, o‘z vaqtining shartlarida (globalizatsiya, zamonaviy texnologiyalar ta’siri) ham saqlanishi va rivojlanishi kerak. Bu jarayon, asosiy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni zamonaviy sharoitga moslashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Muhim nuqtai nazar: milliy qadriyatlar o‘z ildizlaridan tashqari, ular o‘zaro aloqa va muto‘planishda muhim o‘rin egallaydi. Masalan, diniy qadriyatlar ham milliy qadriyatlarni shakllantirishda o‘z ishtirokini topadi, ammo ular bir-biridan ajralib turadi.

Shunday qilib, milliy qadriyatlar o‘z ildizlaridan o‘tgan va zamonaga mos keladigan bo‘lsa-da, ularni saqlash va rivojlantirish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ifoda etganidek, - “... biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [1].

Mamlakatimizda demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurilishi jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Endigi vazifa mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimizni jahonning rivojlangan davlatlari darajasiga ko‘tarishdan iboratdir. Bunday o‘zgarishni amalga oshirmoq uchun, mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa jamiyatimizni ko‘pchiligi tashkil etgan yoshlarni demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish g‘oyasi atrofida

birlashtirishimiz darkor. Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ifoda etganlaridek, - "... o‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilab oladi" [2].

Demokratik jamiyat strategiyasi va taktikasini ruyobga oshirish uchun eng avvalo, yoshlar tarixiy xotirasini tiklash va uni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonni butun insoniyat yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar bilan bog‘lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ruhiy-ma’naviy ozuqa beradigan qudrat tarixiy xotiradir. Inson o‘z tarixiy xotirasiga ega bo‘lmasdan turib, mamlakati, xalqi, millati hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi. O‘z navbatida tarixiy xotira va uni tiklash – milliy g‘oyani yoshlar ongiga sindirishning muhim sharti hamdir. Shuning uchun ham hamma zamonlarda ham xalqning, millatning tarixiy xotirasini mustahkamlash yurtning buyuk allomalari, davlat arboblari diqqat e’tiborida bo‘lgan.

Chunonchi, Abu Nasr Forobiyning tushuntirishicha, tarixiy xotira, har bir millat, har bir xalq yaratgan ma’naviy boyliklar, umuminsoniy madaniy meros bilan birlashganda, umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo‘shilgan paytdagina sodir bo‘ladi. Uning yozishicha: "odamlarni bir avlodi o‘lib ketgach, ularning jismlari yo‘q bo‘lib ketadi-yu, ammo ularning ruhlari vujud (qiyofasi)dan qutilib, saodatga erishadilar. So‘ng boshqalar ularning o‘rnini egallab, ular qilgan ishlarni qiladilar. Bu avlod odamlari ham dunyodan o‘tgach, xuddi shunday yo‘l bilan ruhlari avvalgilarining izidan borib, qiyofalari (fe’l va fazilatlari), quvvati va sifati o‘xshash ruhlar bir-birlari bilan qo‘shilganlarida har qancha kabir (ulkan) bo‘lsalar ham (jismsizligi tufayli) makonda bir-birini siqib chiqarmaydilar. Chunki ular hech qachon makonni egallamaydilar va ruhlarning qo‘shiluvlari tanalarining qo‘shiluviday yuz bermaydi" [3].

Ko‘rinib turibdiki, inson bilan insoniyatning o‘zaro aloqadorligi natijasida vujudga kelgan qadriyatlar, ya’ni ajdodlar va avlodlarning ruhiy-ma’naviy olami, umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo‘shiladi va asta-sekin tarixiy xotiraga aylanib boradi. Boshqacha aytganimizda, tarixiy xotira insoniyatning barcha ajdodlari va avlodlari ruhini, ya’ni ularning fikrlari, g‘oyalari va e’tiqodlari, orzulari va istaklarini o‘zida mujassamlashtiradi. Xuddi shuning uchun ham insoniyatning ruhiy-ma’naviy yetukligi uning tarixiy xotirasi bilan bog‘liq. Tarix inson uchun buyuk xotira vazifasini bajaradi. Bugungi kunda yoshlar tarixiy xotirasini tiklash va uni mustahkamlash yo‘llarini aniqlash muhimdir.

Birinchidan, yoshlarda xalqimiz, millatimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk allomalar jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari bilan tanishtirishdir. Boshqacha aytganimizda, Markaziy Osiyolik allomalarning jahon ilm-fani, madaniyati va san’ati xazinasiga qo‘shgan hissalarini aniqlab berishdir. Ikkinchidan, yoshlar xalqimiz, millatimizning asrlar osha o‘chmas yulduzi bo‘lib kelgan buyuk siymolarimiz tavallud topgan kunlarini nishonlash va buyuk tarixiy voqealarni yodga olishdir.

Uchinchidan, yoshlarda xalqimiz, millatimiz hayotida sodir bo‘lgan buyuk tarixiy voqealarni bayon qilishdagi bir yoqlamachilikka, soxta g‘ayriilmiy qarashlarga zarba berishdir. Tarixiy voqealarni milliy istiqlol talablari asosida qayta kurib chiqish va ularga xolisona, to‘g‘ri baho berishdir.

To‘rtinchidan, yoshlarda o‘zbek davlatchiligining haqiqiy tarixini tushuntirish. O‘zbek davlatchiligi qanday tarixiy bosqichlarni bosib o‘tganligini ilmiy tushuntirish.

Beshinchidan, yoshlarda o‘tmishda sodir bo‘lgan buyuk tarixiy voqealarning ijobiy-salbiy tomonlarini har tomonlama tahlil qila bilish va undan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish malakasini shakllantirish. Tarixiy voqealarni har tomonlama tahlil qila olish malakasini shakllantirish uchun o‘tmishni mukammal o‘rganmog‘imiz zarur. O‘tmishni mukammal o‘rganish tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashning eng muhim yo‘lidir. Tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy-mafkuraviy tadbirlar samaradorligini yanada oshirmoq uchun quyidagilarga rioya qilinishi lozim:

Birinchidan, tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar tashkilotchilari, targ‘ibotchilari va tashviqotchilari har bir xalq, har bir millat, har bir elat tarixiy xotirasining o‘ziga xos xususiyatlari borligini hamisha nazarda tutmoqlari zarur. Chunonchi, har bir millat yoki elatning tarixiy xotirasida, qaysi dinga mansubligi o‘z aksini topadi. Boshqacha aytganimizda, millat, elatning tarixiy xotirasi din bilan bevosita bog‘liq ekanligini unutib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, xalq, millat, elatning tarixiy xotirasini tiklamoq uchun o‘sha xalq, millat yoki elatning umuminsoniy qadriyatlar, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini aniq ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib bermoq darkor.

Uchinchidan, xalq, millat, elatning tarixiy xotirasini tiklash ishlari boshqa xalq, millat, elatlarning milliy qadriyatlarini kamsitish hisobiga bo‘lmasligi zarur. Chunki boshqalarning milliy qadritlarin e’zozlay bilmagan xalq o‘z milliy qadriyatlarini hech qachon ulug‘lay olmaydi.

To‘rtinchidan, har bir millat, har bir elat, har bir xalqning tarixiy xotirasini tiklash va uni mustahkamlash ishlarining asosida – milliy o‘zligini anglash yotishini unutmaslik zarur.

Beshinchidan, tarixiy xotiraning har bir xalq, millat yoki elat uchun muhim bo‘lgan uch tomoni borligi unutmaslik kerak. Birinchidan, xalq, millat yoki elatning qaror topishi; ikkinchidan, o‘zining tarixiy saboqlarini anglashi; uchinchidan, tarix saboqlaridan boshqa xalqlar ham foydalanishi mumkin ekanligiga e’tiborni qaratish lozim.

Oltinchidan, tarixiy xotirani tiklamoq uchun tarixni haqqoniy o‘rganmoq va o‘rgatmoq darkor. Tarixni o‘rgatganda va o‘rganganda, yaqin o‘tmishimizda bo‘lganidek, faqat moddiy ishlab chiqarish omillariga bog‘lab (faqat moddiyunchasiga) o‘rganmasdan, balki uni madaniyatning bir bo‘lagi, ma’naviyatning manbai, negizi sifati qaramoq zarur.

Xullas, ma’naviy tarbiyaning samarali ta’sirini oshirishda eng avvalo, fuqarolar ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganimizda, bizning tayanchimiz, ishonchimiz va kelajagimiz bo‘lgan yoshlar tarixiy xotirasi shakllantirish muhim vazifalarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: -
2. O‘zbekiston, 2023.–438 b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.: 1993.- 164-165 b.
4. Jabborov A.Tarixiy xotirani tiklash - milliy o‘zlikni anglash omili.//
5. Milliy istiqlol va shaxs kamoloti. - Qarshi, 2002. - B. 23-27.
6. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi.- T., 1995.
7. Temur tuzuklari. G‘ B.Ahmedov tahriri ostida.- T., 1991.
8. Xonazarov Q. Tarix g‘ildiraklari qo‘zg‘aldi.//Muloqot.-1997.- №2.- B. 2-4.